

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-avgust


RAQAMLAR:

- Xizmatlar sohasida 17,3 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda.
- 2018 yil yanvar-avgust oylarida bozor xizmatlari hajmi 4999,1 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 1654,2 ming.so'mni tashkil etdi.

Yangi korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish, shuningdek, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar tomonidan innovatsion texnologiyalardan foydalanish va ko'rsatilayotgan xizmatlar ro'yxatini kengaytirish kelgusida ish o'rinlarini ko'paytirish va aholi farovonligini oshirishga yordam beradi.

Hozirgi vaqtda xizmatlar sohasida Andijon viloyatida 17 mingdan ortiq korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 64,4 % ni tashkil etadi.

2018 yil 1 sentyabr holatiga korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), %




2018 yil yanvar-avgust oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 4999,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,2% ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	4999,1	107,2
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	330,6	115,6
Moliyaviy xizmatlar	652,8	129,4
Transport xizmatlari	1199,1	102,6
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1167,6	103,1
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	82,4	103,0
Savdo xizmatlari	1710,6	103,1
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	157,8	102,1
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	168,6	102,1
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	69,6	123,4
Ijara xizmatlari	119,5	111,0
Kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	131,5	103,4
Shaxsiy xizmatlar	224,9	101,1
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	28,3	122,1
Boshqa xizmatlar	123,4	109,4

2018 yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha moliyaviy xizmatlar (29,4 %), sog'liqni saqlash xizmatlari (23,4 %) me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (22,1 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (15,6 %) kabi xizmat turlarida yuqori o'sish qayd etildi.

2018 yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari shaxsiy xizmatlar (101,1 %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (102,1 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (102,1) kabi xizmat turlarida qayd etildi.

Ko`rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida eng katta ulushlar savdo xizmatlari (34,2 %), transport xizmatlari (24,0 %) moliyaviy xizmatlar (13,0 %) hamda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,6 %) ga to`gri kelmoqda.

2018 yil yanvar-avgust oylarida ko`rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi, %



Viloyat statistika boshqarmasi
Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Ma'sul: A.Usmonov

Tel: 71 (230-82-63)